



TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRINI O'RGANISH

Otavaliev Jaxongir Yaxyaevich

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan iqtisodiy inqirozlar, ishsizlik darajasining keskin oshishi, inflyatsiya darajasining o'sishi kambag'allikning yuzaga kelishining asosiy sabablari bo'lib qolmoqda. Bunday holatlar, hattoki rivojlangan davlatlarda ham kuzatilmoqda.

Shu bois, ushbu mavzudagi muammolarga yechim topish global mavzuligicha qolmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan 2020 yil 29 dekabrida Oliy Majlisda qilingan Murojaatnomada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda 2016 yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko'p kreditlar ajratilganligini alohida ta'kidlab o'tganlar[1].

Hurmatli Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoevning 2021 yil 20 avgust kuni tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvida so'zlagan nutqida "Men yaxshi tushunaman, hamma arzon kredit olishni xohlaydi. Lekin kreditbo'yicha foiz stavkalarini sun'iy pasaytirsak, pul-kredit bozoridagi muvozanat buziladi. Shuning uchun iqtisodiyotga arzon kredit beramiz deb, makroiqtisodiy barqarorlikni unutib qo'ymasligimiz lozim. Barqarorlik bo'lmasa, iqtisodiy o'sish bo'yicha ko'zlagan maqsadlarimizga erisha olmaymiz." [2]deb ta'kidlaganligi ham bejizga emas.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning pirovard maqsadlari iqtisodiy o'sish, to'liq bandlik, narxlar hamda to'lov balansining barqarorligini ta'minlashdan iborat[3]. Iqtisodiyotda pul-kredit siyosatini yuritilishida va unga ta'sir etadigan choralar ko'rildi, uning oqibatlari haqida aniq hisob-kitoblar olib borish zaruriyatini talab etadi. Pul-kredit siyosatining oqibati deganda, siyosatning qisqa muddatli va uzoq muddatli oqibatlari tushunilishi kerak.

Qisqamuddatli davrda -davlat pul taklifini oshirib, natijada YalM miqdori o'sishini rag'batlantirishihama ma'lum darajada samaradorlikka erishishi hisoblanadi. Ammo, uzoq muddatli davrda -iqtisodiy o'sish pasayishi mumkin[4]. Iqtisodiyotda, pul-kredit siyosati asosida pul-kredit siyosatining ta'sir etishi jarayonlarini o'rganishda pul nazariyasi tushunchasi yotadi. Mazkur nazariyaga iqtisodchilarining ikki xil yondashuvi va tortishuvlari mavjud. Bular neokeynschilar nazariyasi hamda zamonaviy pulmiqdori nazariyasi tarafdarlari hisoblanadi. Shuningdek, mazkur nazariya tarafdarlari ham pul taklifining nominal YalMga ta'sirini inkor etmaydi. Biroq, Keynschilar monetar siyosat yuritishda foiz stavkasi darajasiga, monetaristlar pul taklifining darajasiga asoslanishni lozim deb hisoblaydilar. Ya'ni, Keynschilar bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat aralashuvi shart deb xisoblashsa, monetaristlar esa teckari fikrlaydilar. Bugungi kunda O'zbekistonda kredit siyosatini va banklar foliyat yuritishinierkinlashtirish hamda bank xizmatini yanada yaxshilash zarurati mavjud. Bunda, bank tizimida transformatsiyalash jarayonilarini amalga oshirilishi taqozo etilmoqda.



"MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"



Iqtisodiyotdaishlab chiqarish qisqarib, ishsizlar soni ortib borsa, mazkur vaziyatda davlat tomonidan Markaziy bank orqali pul taklifini oshirishga harakat qiladi. Buning natijasida pul taklifi o'sishiga erishiladi, foiz stavkalariesa kamayadi. Tijorat banklari tomonidan foiz stavkalarining kamayishi esainvestitsiyalarga bo'lgan talab oshiradi, YalM miqdorini esa ko'payishiga olib keladi.


Demak: $Y=C+I+G+X_n$

M i I Y



Bu yerda, Y-real YalM; S-iste'mol; I-Investitsiya; G-Davlat xarajaatlari; Xn-Sof eksport; i-foiz stavkasi.

Inflyatsiya darajasini tuzatish koefsenti orqali grafik ko'rinishi



1-rasm. Kreditlarning inflyatsiya darajasi inobatga olgan holda hisoblanishi

Viloyatda YaHMhajmi 2016 yilda 12,1trln. so'm, 2017 yilda 14,4 trln. so'm, 2018 yilda 18,6 trln.so'm, 2019 yilda 22,3 trln.so'm, 2020 yilda 24,4 trln.so'm, 2021 yilda 30,0 trln.so'mga teng bo'lgan. Iqtisodiyotda kredit foizini pasayishi, investitsiyaning o'sishiga bu esa YalMning o'sishiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga kredit ajratish orqali iqtisodiyotning qisqa muddatda o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Shunday ekan avvalambor, ushbu tizimni yanada takomillashtirish va yangi loyihalaramalga oshirilishida banklar tomonidan kreditlash tizimini yanada takomillashtirish zarur. Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ajratiladigan kreditlarni foiz stavkasini erkin holatga keltirish zarur. Hukumat qarorlari asosida davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladigan loyihalalar uchun ajratiladigan kredit foizlarini tadbirkorlikni rivojlantirish jamg'armalari tomonidan qoplab berish tizimini amaliyatga joriy etishmaqsadga muvofiq bo'ladi. Yangi O'zbekistonda iqtisodiyotda kredit siyosatining yangi



bosqichiga o'tiladi. Bu bilan monopoliya va korruptsiya holatlarga barham berilib, tadbirkorlikni boshlash va yangi loyihalarni amalga oshirilishida raqamli iqtisodiyotdan foydalanishga va tanlash imkoniyatlarini kengaytirilishiga, erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580 Qonuni, 2019 yil 7 noyabrъ.
2. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RQ-578 Qonuni, 2019 yil 7 noyabrъ.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyuldagagi "Koronavirus pandemiyasi davrida ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6038-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni